



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT  
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH  
MARKAZI**

# **“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani**

**MATERIALLARI**

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2025**

**UO‘K: 494.375**

**KBK: 81.633.1**

**D 26**

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.  
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

**Mas’ul muharrir:**

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-06-774-7**

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

# GEOGRAFIK TUZILISH, TASHQI KO‘RINISH ASOSIDA SHAKLLANGAN JOY NOMLARI

Sobir AXMEDOV\*

## Annotatsiya

Ushbu maqolada tabiiy-geografik toponimlar o‘zi ifodalayotgan hududning tabiati, iqlimi, nabotot va hayvonot olami, joylashish o‘rni, relief tuzilishiga doir boy ma’lumotlar keltiriladi. Tilshunoslik fanidan tashqari tarix, geografiya, o‘lkashunoslik, botanika, zoologiya, geologiya fanlari uchun ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egaligi hamda semantik jihatdan turlari, xususan, hududning joylashish o‘rniga ko‘ra hamda rang belgisi asosida shakllangan toponimlarning semantik xususiyatlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** semantika, toponim, geografik tuzilish, tilshunoslik, nom, so‘z, leksema, oykonim, so‘z birikmasi.

## Place Names Formed Based on Geographical Structure and Appearance

### Abstract

This article provides rich information about the nature, climate, flora and fauna, location, and relief structure of the area that natural-geographic toponyms represent. In addition to linguistics, they are of great scientific and practical importance for history, geography, local history, botany, zoology, and geology, and their semantic types, in particular, the semantic characteristics of toponyms formed based on the location of the territory and color symbols, are described.

**Keywords:** semantics, toponym, geographical structure, linguistics, name, word, lexeme, ikonym, phrase.

Tabiiy-geografik toponimlar obyektning tabiati, o‘simlik, hayvonot dunyosi va relief xususiyatlari motivatsiyasi asosida hosil qilinadi. Toponimlarning bu turi ham, albatta, xalqning kuzatishlari, qarashlari, tajribasi natijasida yuzaga keladi.

Tabiiy-geografik toponimlar semantik jihatdan bir necha turlarga bo‘linadi. Biz ularning har biri haqida fikr yuritamiz.

Nomlarning aksariyati mazkur joyning geografik tuzilishi bilan bog‘liq holda shakllangan.

Tabiiy-geografik toponimlar obyektning tabiati, o‘simlik, hayvonot dunyosi va relief xususiyatlari motivatsiyasi asosida hosil qilinadi. Toponimlarning bu turi ham, albatta, xalqning kuzatishlari, qarashlari va tajribasi natijasida yuzaga keladi.

---

\* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malakasini oshirish markazi Jizzax viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari, [sobir79as@gmail.com](mailto:sobir79as@gmail.com), ORCID ID: 0000-0002-5789-0679

Tabiiy-geografik toponimlar o‘zi ifodalayotgan hududning tabiati, iqlimi, nabotot va hayvonot olami, joylashish o‘rni, relief tuzilishiga doir boy ma’lumotlarni tanishish bilan tilshunoslik fanidan tashqari tarix, geografiya, o‘lkashunoslik, botanika, zoologiya, geologiya fanlari uchun ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tabiiy-geografik toponimlar semantik jihatdan bir necha turlarga bo‘linadi. Ular quyidagilar:

Geografik tuzilish, tashqi ko‘rinish asosida shakllangan joy nomlari;  
*hududning joylashish o‘rniga ko‘ra belgisini ifodalovchi toponimlar;*  
*rang belgisi asosida shakllangan toponimlar;*  
*joyning tabiati, iqlim xususiyatlari asosidagi toponimlar;*

Hududning joylashish o‘rniga ko‘ra belgisini ifodalovchi toponimlar semantikasi

*Muzbel* – Baxmal tumani Tuyatortar daryosi atrofida joylashgan qishloq nomi. Qishloq Ilono‘tdi darasining shamol yo‘li ustida joylashgan. Bu yer musaffo havoga, zilol suvga, ko‘rkam bog‘larga burkangan bo‘lib, doimo mayin shabada g‘ir-g‘ir esib turadi.

Muzbel oykonimi *muz* va *bel* so‘zlaridan tarkib topgan. *Bel* (turkiycha) ikki yo‘lning o‘rtasi. Turkiy tilda *bel*, *oshuv* so‘zlari “*bir tog‘dan ikkinchisiga o‘tadigan pastroq joy, o‘rtaliq*” ma’nolarini ifodalaydi. *Muz* so‘zi “*sovuq*” ma’nosida ham qo‘llanadi. *Bel* so‘zi geografik termin sifatida, asosan, oronimlar tarkibida uchraydi. U turkiy tillarda “*pasttog‘*”, “*tog‘ tepaligining past joyi*” ma’nolarida joy nomlari tarkibida keladi. Qishloq uncha baland bo‘lmagan, ammo nisbatan sovuq dovon yonida joylashgani sababli shunday nomlangan.

*Muzbuloq* — Baxmal va G‘allaorol tumanlaridagi qishloq nomi. Geografik obyekt nomi tarkibidagi *muz* so‘zi “*sovuq*” ma’nosida qo‘llangan. Yer osti suvlarining tabiiy holda yer yuzasiga chiqishi “*buloq*” deyilgan. *Buloq* so‘zining areali ancha keng va geografik termin sifatida barcha turkiy tillarda qo‘llanadi. Obyekt suvining harorati nomlashga asos qilib olingan. *Muzbuloq* — suvi toza, shaffof, zilol, yoz faslida ham muzdek suv oqib turadigan buloq. Baxmal tumanda *Sovuqbuloq* nomli qishloq ham bor. Dastlab buloq nomi bo‘lgan, so‘ngra qishloq nomiga aylangan. Demak, *Muzbuloq* gidronimi asosida oykonim paydo bo‘lgan.

*Jilibuloq* — bu toponim haqida shunday izoh mavjud: “*jilli va buloq* qismlaridan tashkil topgan bo‘lib, qadimgi turkiy tilda *jil// jo‘l/yo‘l* so‘zi “*buloq*”ni va undan oqib chiqadigan suvni bildirgan. XI asrdan boshlab *yo‘l* so‘ziga *-li* qo‘shib ishlatila boshlagan. *Yo‘llisoy, yo‘llijoy*. Keyinchalik bu so‘z *jo‘lli, jilli, jili* tariqasida ishlatilgan va suvi qurimaydigan, qishin-yozin oqib turadigan joy ma’nosini anglatgan. Keyinchalik, shu joylarda o‘troqlasha boshlagan kishilar jilibuloqliklar nomi bilan atalgan”. Toponim tarkibidagi *jilli* “*iliq*” ma’nosidagi so‘z, buloq suvining haroratini ifoda etadi.

*Buloqboshi* — Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Oykonom *buloqning boshida joylashgan aholi manzili* toponimik ma'nosini anglatadi.

*Tegirmonboshi* — Baxmal tumani qishloq nomi. Bu qishloq Yo'ldoshboy QFY tarkibiga kiradi, Qorasovuq va Kattasoy qishlog'ining o'rtasida joylashgan. Keksalarning aytishlaricha, Yo'ldoshboy qishlog'idan Olomon qishlog'igacha dastlab (60-yillargacha) beshta tegirmon bo'lib, shu tegirmonlarning birinchisi Kattasoy qishlog'ining pastrog'ida joylashgan. Qishloq tegirmonlarning birinchisi atrofida bo'lgani bois *Tegirmonboshi* deb nomlangan.

*Tagob* — Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Oykonomga gidronim “*suv to'planadngan joy*” ma'nosidagi *tagi ob* birikmasi lug'aviy asos bo'lgan. Bu yerni tez-tez sel olib ketgani bois *shunday nomlangan*.

*Zomin* — shaharcha, Zomin tumanining markazi. O'rta asrlarda yirik shahar bo'lgan. *Zomin*, dastlab, arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Xavqal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. *Zomin* polisonimining etimologiyasi aniqlanmagan. Uning *Sarsanda*, *Susanda*, *Sabza* kabi variantlari ham bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, aholi manzili eramizning II asridan boshlab, shu nom bilan atala boshlangan. *Zomin* juda qadimiy tarixga ega bo'lib, uning paydo bo'lganiga ikki ming yildan oshiqroq bo'lganini isbotlovchi arxeologik dalillar ham bor.

*Zomin* atamasi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Xususan, “*Zomin bo'lish*”, “*zam*” — “*chorraha*”, Alisher Navoiyning “*Hayrat ul-abror*” asarida *zomin* so'zi “*tog'oralig'i, o'rtalig'idagi makon*” degan ma'noda qo'llangan (Бойбўриева, 43-44-b.).

Toponimning etimonini “*manba*”, “*asos*” ma'nosidagi *zamin* so'ziga ham bog'lash mumkin. *Zabyn* yoki *zomin* so'zining kelib chiqishi ayrim tadqiqotlarga ko'ra, *yam* so'ziga borib taqaladi. So'z boshidagi “*y*” undoshi talaffuzda ba'zan *z* tovushiga, *m* tovushining *b* undoshiga aylanishi qipchoq lahjasiga xos lingvistik hodisa. Yerli xalq tomonidan *yom* so'zi *zom* yoki *zob* tarzida aytilgan. O'zakka joy nomini yasovchi *-ын* qo'shimchasi qo'shilishi bilan “*Zobin*” yoxud “*Zomin*” atamasi vujudga kelgan” (Тўйчибоев, Қашқирли, 58-b.).

*Yom* — Zomin tumanidagi qishloq nomi, oykonim. Klassik mo'g'ul yozma tilida, shuningdek, hozirgi mo'g'ul shevalarida *yom* so'zi *jam*, *zam*, *yam* variantlarida “*yo'l*” degan ma'noni anglatadi; mo'g'ullar imperiyasi davrida esa “*pochta stansiyasi*”, “*bekat*” degan ma'noni anglatgan. Markaziy Osiyoda *Yom*, *Jom* degan joylar ko'p bo'lgan. Rus tilida “*aravakash*” ma'nosida qo'llanadigan *yamuqik* atamasi ham aslida “*yomchi*”dan olingan (Тўйчибоев, Қашқирли, 60-b.).

*Darg'ob* — Baxmal va Zomin tumani Gidronim aslida *Darg'atiob* shaklida bo'lgan, nomning fonetik tarkibi o'zgargan, “*suv taqsimlagich inshooti to'g'on*” ma'nosini bildirgan. Nomning qadimiy shakliga asos bo'lgan so'z — *varg'*. Qadimiy sug'd tilida *varg'* (*varq*) — “*to'g'on, band*” ma'nosini ifodalagan. *Darg'at* — zarur bo'lgan suv miqdorini kerakli yo'nalishlarga taqsimlovchi gidrotexnik inshoot, *ob* esa

suv. B.O‘rinboyev fikricha, “Toponimning o‘zagi *darg‘a* so‘zi bo‘lib, “*boshliq*”, “*yo‘lboshchi*”, “*qo‘mondon*” ma‘nolarini anglatadi. *Darg‘ob* — “*suv taqsimlovchi, suv darg‘asi, mirob*” ma‘nosidadir. Bizningcha, *Darg‘ob* gidronimi “*suv taqsimlash joyi*” degan ma‘noga ega.

*Duoba* — Zomin tumani suvning qo‘shilish joyi va qishloq nomi. Gidronim *Dug‘oba*// *Duvoba* // *Duvova* variantlarida yozib kelinadi. Gidronimning lug‘aviy asosi fors-tojikcha bo‘lib, “*ikki suvli*” degan ma‘noga ega.

Bu so‘z ko‘pincha ikki suv qo‘shilgan joyga nisbatan ishlatiladi. Aholi manzili Zomin daryosining ikki yirik irmog‘i *O‘rikli soy* va *Yettikechuv soy* ochiqroq maydonda tutashgan, qo‘shilgan hududda joylashganligi bois shunday atalgan.

Rang belgisi asosida shakllangan toponimlarning semantik xususiyatlari

*Oqqo‘rg‘on* — Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Jizzax shahrida *Oqqo‘rg‘onlik* mahallasi bor. Toshkent viloyatida shu nomdagi tuman mavjud. *Oqqo‘rg‘on* — katta, poydevori oq toshdan terilgan, kunchiqar tomonda joylashgan qo‘rg‘on. Ana shunday qo‘rg‘oni bor qishloq ham — *Oqqo‘rg‘on* deyilgan.

Bizningcha, *Oqqo‘rg‘on* oykonimiga *oq* so‘zining “*ulug‘lik*”, “*yuksaklik*” semalari bilalug‘aviy asos bo‘lgan.

Tarixdan ma‘lumki, insonlar tomonidan bunyod etilgan istehkomlar, qo‘rg‘onlar nomidagi *oq* leksemasi ularning hukmdorlar uchun mo‘ljallanganini bildirgan. Toponimlar tarkibida rang bildiruvchi “*qora*”, “*oq*”, “*sariq*”, “*ko‘k*” sifatlari ba‘zan “*baland*”, “*katta*”, “*yuksak*” ma‘nolarida ham qo‘llanadi. Masalan, *Aqteba* boshqalaridan kattaroq tepalikni anglatgan” (Тўйчибоев, Қашқирли, 54-б.).

*Oqtosh* — Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Bu joy qadim-qadimdan shu nom bilan yuritiladi. Bu qishloq geografik jihatdan Novqo‘ta qishlog‘i bilan O‘smat, Oyisha qishloqlari oralig‘ida joylashgan. Bu joyda yashovchilar o‘zlarini turk, barlos, qipchoq urug‘lariga mansub kishilar deb bilishadi. 60–70-yillarda qishloqda “*Oqtosh marmar kareri*” ishga tushgan. Bu yerning marmar toshi — Toshkent, Moskva shaharlarida binolarning tashqi va ichki bezagi uchun ishlatilgan. Qishloq *Oqmarmartosh* tog‘i yaqinida joylashganligi bois shunday atalgan.

O‘zbekistonda relief shakllarini ifodalaydigan oronimik terminlar orasida *tosh* so‘zi alohida o‘rin tutadi. Tosh so‘zi qattiq tog‘ jinslarining umumiy nomi bo‘lish barobarida “*tog‘*”, “*alohida qoya*”, “*cho‘qqi*” ma‘nosini anglatadi. Viloyat hududida *Oqtosh*, *Qoratosh* toponimlari ham uchraydi. Bu o‘rinda *tosh* so‘zi “*ulkan qoya*”, “*kichikroq tog‘*” ma‘nosida qo‘llangan. Masalan, Zomin tumanida Zominsuvning bo‘yida *Qoratosh* degan joyda 4-5 qavatli uy kattaligida qo‘ng‘ir-qoramtir yolg‘iz yaxlit qoya bor yoki shu tumandagi Tamtum qishlog‘i markazida ham 4-5 qavatli uycha keladigan *Cho‘qmortosh* nomli qoya bor. Shu qishloq yuqorisida *Ayritosh* nomli qo‘shaloq cho‘qqi bor.

*Oqzayak* — Zomin tumanidagi mavze. Jizzax viloyatining Zomin va bir necha tumanlarida, Fargʻona vodiysining ayrim joylarida koʻp yil ekin ekilmay yotgan tashlandiq yer *zayak* // *zoyak* deyiladi. Bu soʻz sugʻdiycha boʻlib, ikki qismdan iborat: *zoy* – “yer”, *-ak* – “qoʻshimcha”. Sugʻd tilining davomi boʻlgan yagʻnob tilida ham *zoy* soʻzi “*tuproq*”, “*dala*”, “*ekinzor*” maʼnosini bildiradi. Yagʻnob tilidagi *Zoyak*, *Dumzoy*, *Zoyti* kabi toponimlar tarkibidagi *zoy* elementi “*yer-joy*” degan maʼno anglatadi. Demak, *Oqzayak* oykonimi “*oq tuproqli joy, yer*” degan toponimik maʼnoga ega.

*Qorasuv* — Baxmal va Gʻallaorol tumanidagi qishloq nomi. Toponimiyaga oid ilmiy manbalarda yer ostidan chiqadigan buloq va sizot suvlari bilan toʻyinadigan soy-jilgʻalar *qorasuv* deyilishi, chunki ularning suvi qoramtir tusda boʻlishi koʻrsatiladi. (Копаев, 177–178-b.; ОХУНОВ, 77-b.).

*Qorasovuq* — Oʻsmat kentining Yoʻldoshboy qishloq fuqarolar yigʻiniga qarashli qishloq nomi. Bu joyda doimiy ravishda sovuq shamol esib, boʻronli kunlar koʻproq davomganligi uchun qishloq shunday ataladi. Demak, qishloq hududning tabiiy-iqlim xususiyatlari motivatsiyasi asosida yuzaga kelgan.

*Joyning tabiati, iqlim xususiyatlari asosidagi toponimlar semantik xususiyatlari*

*Boʻrioʻynar*. — Baxmal tumani Togʻ nomi ikki mustaqil soʻzdan tashkil topgan, yaʼni boʻri “*eng kuchli, abjir, vahshiy hayvon*”, oʻynar soʻzi “*erkin yurmoq, oʻz hududining egasi*” maʼnosida. Bu togʻ Oyqor togʻining oʻrta qismida joylashgan boʻlib, bu joydan Kuyundi, Uybodom, Qirqqiz daralariga oʻtish mumkin. *Boʻrioʻynar* togʻi Rajabqayqi togʻining ustki qismida, Uybodom darasiga tutash yerda joylashgan. Archasi ancha qalin, mollarning oʻtlashi uchun qulay joy. Bu joylarda katta-kichik mollar koʻp boʻlganligi uchun ham boʻrilar koʻp. Boʻrilar galasi qishin-yozin bu joyda izgʻib yurgani uchun shu nom bilan atalgan. Demak oronimga “*boʻri oʻynaydigan joy*” otli soʻz birikmasi asos boʻlgan.

*Tulkili*. — Baxmal tumani Soy boʻylarini tulkilar makon etgani, koʻpayib ketgani uchun shunday nomlangan. Demak, oronimga “*tulkilar koʻp boʻladigan joy*” otli soʻz birikmasi asos boʻlgan. Lisoniy shakllanishi quyidagicha: *Tulkili soy* (otli birikma) > *Tulkili soy* (soy nomi – gidronim) > *Tulkili soy darasi* (oronim) > *Tulkilisoy* (oronim).

*Kiyikmozor* — Baxmal tumani zootoponim. Kattasoy qishlogʻining kunbotar tomonidagi katta qirlikda joylashgan. Bu toponim odamlar qut-baraka keltiruvchi, deb bilgan kiyiklarning oʻldirilishi bilan bogʻliq. Bu qarash boshqa turkiy xalqlarda ham uchraydi.

*Ayiqlisoy* — Baxmal tumani zootoponim. Bu togʻ Oyqor togʻining kun chiqish tomonida joylashgan. Ayiqlar koʻp boʻlgani uchun shunday nomlangan. Demak, toponimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *ayiqli soy* (otli birikma) > *Ayiqli soy* (soy nomi – gidronim) > *Ayiqli soy darasi* (oronim) > *Ayiqli soy* (oronim).

*Kakliklisoy* — Baxmal tumani zootoponim. Kakliklar ko‘p bo‘lgani sababli, ovchilar bu joyni qadimdan shunday atashgan. Demak, toponimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *kaklikli soy* (otli birikma) > *Kaklikli soy* (soy nomi – gidronim) > *Kaklikli soy darasi* (oronim) > *Kaklikli soy* (oronim).

*Ilonlisoy* — Baxmal tumani tog‘ nomi, oronim. *Sudralib yuruvchi, ko‘rinishi va harakati etni junjiktiradigan, qovoqlari bo‘lmaydigan jonivor*. Soyda katta-kichik turli xillari bo‘lganligi uchun, *Ilonlisoy* deb atalgan, *ilon* so‘zi va *soy* indikatorlaridan tarkib topgan. Keyinchalik, soy tashkil qilgan dara xam shunday atalgan, gidronim tranonimizatsiya asosida oronimga o‘tgan. Mazkur toponimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *ilonli soy* (otli birikma) > *Ilonli soy* (soy nomi — gidronim) > *Ilonli soy darasi* (oronim) > *Ilonlisoy* (oronim).

Bir qator toponimlar o‘t-o‘lan, o‘simlik, giyoh nomlaridan shakllangan bo‘lib, xalqning shu o‘simlik borasidagi tajribasi, unga munosabati bilan bog‘lanadi.

Toponimlarning ma‘lum bir qismi xalq tabobatida keng qo‘llanadigan giyoh nomlari asosida shakllangan.

*Baldirg‘onsoy* — Baxmal va Zomin tumani soy va tog‘ nomi. Oyqor tog‘ida *baldirg‘on* degan o‘simlik o‘sadi. Bo‘yi bir metrlik chamasi bo‘lgan bu o‘simlik tanasining ichi bo‘sh, barglari katta-katta. Bu o‘simlikni qo‘ylar yaxshi yeydi. Qo‘ylarni turli xil ichki kasalliklardan forig‘ qiladi. Agar qo‘y yoki qo‘zilar qishda kasallikka chalingan bo‘lsa, bahorda *baldirg‘on* yesa yaxshi et oladi. Shuning uchun cho‘ponlar may oyidan boshlab suruvni *Baldirg‘onsoy*ga haydaydilar va qo‘ylarni bir ikki bora *baldirg‘onga* to‘ydiradilar.

Oyqor kengliklaridagi bu soyni va soylikni ana shu o‘t o‘shiga nisbat berib, *Baldirg‘onsoy* deb ataganlar.

*Bildirg‘onsoy* gidronimi tranonimizatsiya asosida oronimga o‘tgan, tarkibi *baldirg‘on* apellyativi va *soy* indikatoridan iborat, qo‘shma tarkibli toponim.

*Zirabuloq* — Zomin tumanidagi buloq va tog‘ nomi. Atrofda zira ko‘p bo‘lganidan buloq shunday nom olgan. Shuningdek, Kattaqo‘rg‘on tumani, Surxondaryo viloyati toponimiyasida ham *Zirabuloq* toponimi uchraydi. Nomning ikkinchi varianti *Zeribuloq*, ya‘ni “*buloqdan quyidagi joy, yer*” ma‘nosini anglatadi. Bizningcha, toponimning o‘simlik nomidan yuzaga kelgani haqidagi fikr asosli.

*Zirabuloq* gidronimi tranonimizatsiya asosida oronimga o‘tgan, tarkibi *zira* apellyativi va *buloq* indikatoridan iborat, qo‘shma tarkibli toponim. Buloq nomiga uning atrofida zira giyohini o‘shishi motiv, shu giyoh nomi lug‘aviy asos qilib olingan.

*Ziralisoy* — Baxmal tumani tog‘ nomi. gidronim. Fitotoponim o‘tsimon o‘simlik, uning sabzi urug‘iga o‘xshash urug‘i bor. Uning urug‘i ovqatni xushbo‘y, xushxo‘r qiluvchi ziravor sifatida ishlatiladi. Oyqor tog‘ining zira o‘suvchi qirligi Kattasoyning Olchali va G‘ovqo‘ton bilan tutashgan joyida. Zirani ushoq (qo‘y, echki) mollar yaxshi yeydi. Suruv o‘tgan joyda zira qolmaydi. *Ziralisoy* gidronimi



transonimizatsiya asosida oronimga o'tgan, tarkibida *zirali* apellyativi va *soy* indikatoridan iborat, qo'shma tarkibli toponim. Nomga uning atrofida o'sadigan *zira* giyohini o'sishi motiv shu o't nomi lug'aviy asos qilib olingan. Mazkur toponimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *zirali soy* (otli birikma) > *Zirali soy* (soy nomi — gidronim) > *Zirali soy darasi*(oronim) > *Zirali soy* (oronim).

*Zirapiyozli* — do'nglik nomi, oronim. Fitotoponim tog'da o'suvchi piyozning bir turi. Bu joyda o'suvchi piyozlar zira bilan aralash holda chiqib ko'p yillardan beri birga gullashi natijasida chatishib ketgan. Natijada bu kichik tog' piyozidan zira hidi kelib turadi. Shuning uchun ham cho'ponlar bu qirlikni Zira-piyozli do'nglik deb atashadi. *Zirapiyozli* gidronimi transonimizatsiya asosida oronimga o'tgan, tarkibida *zira* apellyativi va piyozli indikatoridan iborat, qo'shma tarkibli toponim. Nomga uning atrofida o'sadigan *zira* giyohini o'sishi motiv shu o't nomi lug'aviy asos qilib olingan.

*Zirkli soy* — Baxmal tumani fitoonim. Zirk Oyqor tog'ida o'sadigan daraxti oq qayinlilar oilasiga mansub, kichik bargli daraxt yoki buta. Zirk daraxti yoqilganda o'zidan yoqimli hid chiqaradi. Zirk daraxtining bargi yoki mevasini barcha turdagi mollar xush ko'rib yeyishadi. Uning mevasi *qorag'at* deyiladi. Bu meva oshga solinadi va unga xo'shbo'y ta'm beradi. Qorag'at qon bosimini tushiradi. Lisoniy shakllanishi quyidagicha: *Zirkli soy*. (otli birikma) > *Zirkli soy* (soy nomi-gidronim) > *Zirkli soy darasi* (oronim) > *Zirkli soy* (oronim). Demak, toponim nomga uning atrofida o'sadigan zirk daraxti o'sishi motiv shu giyoh nomi lug'aviy asos qilib olingan

*Kakrali* — Baxmal tumani fitoonim kakra ko'p hollarda g'alla ekinlari orasida o'sadigan ko'p yillik taxir, talx o'simlik. Bu o'simlik ko'proq qishda qo'ylar iste'mol qilishlari uchun jang'ariladi. Oyqor tog'ining Birkap, Rajab qayqi tog'laridan o'tgan joyini cho'ponlar "*Kakrali*" deb atashadi, chunki bu qiyalik buzuqlikdan iborat bo'lib, bu joyda kakra ko'p o'sadi. Kakraning tanasi qotmasdan qo'ylar bu o'simlikni xush ko'rib iste'mol qilishadi. Bu joylarda kakra ko'p o'sganligi uchun ham *kakrali* deb nom berishgan. Nomga uning atrofida o'sadigan kakra buta o'sishi motiv shu buta nomi lug'aviy asos qilib olingan.

*Marminjaylisoy* — tog' nomi, fitoonim.

Nomga lug'aviy asos bo'lgan *marminjay maymunjon* so'zining fonetik o'zgarishidan kelib chiqqan. Bu o'simlikning tanasi tikanakli bo'lib, yer yuzasi bo'ylab yoyilib o'sadi. Tog'da necha yillardan beri o'sganligi uchun qalinlashib, balandligi 6-7 metr bo'lib ketadi. Mevasi qop-qora bo'lib, g'uj bo'ladi. Uning mevasi sentabr oylarida pishadi. Maymunjonning mevasidan tayyorlangan qaynatma shamollashda, belni davolashda, grippda ishlatiladi. O'smatliklar sentabr oyida borib shu yerning o'zida to'yib yeydilar va qishga tayyorlash uchun terib keladilar.

*Marminjoyli* fitotoponimi transonimizatsiya asosida fitoaronimga o'tgan, tarkibi *marminjoyli* apellyativi va *soy* indikatoridan iborat, qo'shma tarkibli toponim. Nomga uning atrofida *marminjon* butasi o'sishi motiv qilib olingan. Nomning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *marminjayli soy* (otli birikma) > *Marminjayli soy* (soy nomi – gidronim) > *Marminjayli soy darasi* (oronim) > *Marminjaylisoy* (oronim).

*Olchalisoy* — Baxmal tumani tog' nomi, fitoaronim *Olchalisoy*, Kattasoyning eng oxirida, Oyqor tog'ining boshlanishida, kunbotar tomonda joylashgan. Olcha haddan tashqari ko'p bo'lgani uchun ham bu joyni Olchali deb atashadi. Bu joyda olchadan tashqari do'lana, rovoch, lola ham ko'p bo'ladi. Olchali fitotoponim transonimizatsiya asosida fitoaronimga o'tgan, tarkibida *olchali* apellyativi va *soy* indikatoridan iborat, qo'shma tarkibli toponim. Nomga uning atrofida o'sadigan *olcha* daraxti o'sishi motiv shu meva nomi lug'aviy asos qilib olingan. Lisoniy shakllanishi quyidagicha: *olchali soy*. (otli birikma) > *Olchali soy* (soy nomi-gidronim) > *Olchali soy darasi* (oronim) > *Olchali soy* (oronim).

*Chetanli* — Baxmal tumani tog' nomi. Chetan juda qattiq daraxt bo'lib, undan arava o'qlari, omoch, chavron, bo'yinturuq yasalgan. Oyqor tog'ida *Chetanli*, *Irg'ayli*, *Pisholli*, *Zarangli*, *Qizil archali* kabi qattiq daraxt nomlari bilan yuritiladigan joylari ham bor. Nomga uning atrofida chetan daraxti o'sishi motiv qilib olingan. Nomga “*chetan o'sadigan tog*” otli birikmasi etimon hisoblanadi va lisoniy shakllanishi quyidagicha: *chetan o'sadigan tog'* > *chetanli tog'* > *Chetanli tog'* > *Chetanli*.

*Chegalaklisoy* — Forish tumanidagi soy. *Chegalak* lug'aviy birligi hududlarda turlicha ma'noda ishlatiladi: ko'pincha tikanli buta (o'tin) chegalak, deyiladi. Nomning tarkibi *chegalak* apellyativi va *soy* indikatoridan iborat, qo'shma tarkibli toponim. Nomga uning atrofida chegalak butasi o'sishi motiv va shu buta nomi lug'aviy asos qilib olingan. Lisoniy shakllanishi quyidagicha: *chegalakli soy* (otli birikma) > *Chegalakli soy* (soy nomi – gidronim) > *Chegalaklisoy* (oronim).

*Jangal* — qishloq nomi. Bu toponim hududning tabiatidan kelib chiqib nomlangan. Ozarbayjon, turkman tillarida *jingil*, Afg'oniston, Hindistonda *jangal* (o'rmon) deyiladi. “Boburnoma”da ham *jangal* so'zi “o'rmon” ma'nosida keladi. Masalan, o'rmonda yashaydigan to'tini Bobur *jangaliy to'ti* deb ataydi. *Jangal* o'zbek tilida “*daraxtzor*”dan ko'ra “*butazor*” ma'nosida qo'llanadi: *jangalzor*→*changalzor*.

*Shovqor* — Baxmal tumanidagi qishloq, Turkiston tizmasidagi cho'qqilardan biri, Jizzax viloyati (Baxmal tumani) bilan Tojikiston Respublikasi chegarasida. Sug'd tilida *shov* — “qora”, *qor* // *qar* // *gar* “tog'”: *Shovqor* – “qora tog'”. Demak, tog' tashqi ko'rinishiga ko'ra nomlangan Keyinchalik hududda yuzaga kelgan aholi maskani unga nisbat berib nomlagan, oronim transonimizatsiya asosida oykonimiga aylangan. Geografik obyektning atamashunoslikdagi umumlashma nomi toponim

hisoblanar ekan, ushbu atama asosida toponimiya, toponimika kabilar tegishli hududda yashaydigan millat va xalqlarning o‘tmishini, tarixiy rivojlanishini hamda etnik jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

Бойбўриева С. (2009). *Жиззах вилояти Зомин тумани // Турон тарихи*. Тошкент.

Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. (2012). *Зоминнинг тил қомуси*. Тошкент: Академнашр.

Охунов Н. (1994). *Жой номлари таъбири*. Тошкент: Ўзбекистон.

Эназаров Т. (2004). *Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини*.

Тошкент: Университет.